

# NORDIC LIFE | 2024

**7**  
SON  
Aprel  
May • Iyun



**1**

Muloqotlar

Choraklik hisobotlar

**2**

Muzokaralar

Jaryonlar tahlili

**3**

Munosabatlar

Muvaffaqiyat omili



# NORDIK HAYOTI

# NORDIC LIFE

# NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

Xalqaro Nordik universiteti rektori  
Sh.Mustafakulov tahriri ostida

**Nashrga tayyorlaganlar:**  
M.Isaqova, R.Shodmonov

*Xalqaro Nordik universitetining yana bir chorak – 2024-yilning aprel, may, iyun oylaridagi sermazmun hayoti “Nordic life”ning 7-faslida o’z aksini topdi.*

*Ushbu broshyuramizda Nordik universitetida shakllantirilgan ilmiy maktablar faoliyatining ilk mevalari, jamoaning ta’lim va fan sohasidagi kata-kichik ilmiy yutuqlari, talabalarning intellektual salohiyatini oshirish borasidagi qator ibratli tadbirlar yoritilgan. Nordikning keng ko’lamli xalqaro hamkorlik munosabatlari, jamiyat ravnaqi yo’lidagi qator loyihalardagi faol ishtiroki, nufuzli tashrifflar samaralari – bularning barchasi ushbu broshyurada jamlangan.*



**INTILGANGA TOLE YOR!**

**WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!**



# KIRISH

Oliy ta'limgiz tizimida bo'lajak mutaxassislar, yosh kadrlarga ilm berish jarayonini to'g'ri va sifatli tashkil etish universitetlarda amalga oshirilayotgan islohotlarga bevosita bog'liq. Mana shu islohotlar ishtirokchisi va tashkilotchilaridan biri sifatida ish olib borayotgan Nordik universiteti qator tashabbus va yangiliklarga qo'l urmoqda. "Nordic life"ning navbatdagi 7-fasli orqali Siz, aziz o'quvchilarni universitetning tizim ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan yangiliklari, yoshlari uchun ochib berayotgan yangidan-yangi imkoniyat eshkilari, xorijiy tajribalarni o'rganish asnosida milliy tajribalarni boyitishga qo'shayotgan hissasi bilan atroficha tanishtirishni maqsad qildik.

Nordik universitetida joriy yilning ikkinchi choragida, ayniqsa salmoqli ilmiy yutuqlarga erishildi. Qisqa fursat ichida puxta shakllantirilgan ilmiy muktabda tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarining sifatli ilmiy faoliyatlariga har jihatdan ko'maklashildi. Respublikamiz olimlarining yangi uslub va tavsiyalari yoritilgan ilmiy maqolalari jamlanib, "Nordic" ilmiy amaliy jurnalining navbatdagi soni orqali mushtariylar e'tiboriga havola qilindi. XNU huzuridagi Ilmiy Kengashda dolzarb mavzulardagi qator dissertatsiya ishlari munosib himoya qilindi. Quvonarlisi, Nordik universitetining ikki nafar ilk qaldirg'ochlari olimlik diplomlariga sazovor bo'ldilar!

Ushbu broshyuramizda bularning barchasi bilan kengroq tanishishingiz mumkin. Sahifalarimizni varaqlab ko'ring va Nordikda navbatdagi yana bir chorak qadriyatlarga hamohang bayram tadbirlariga boy o'tganligi, turli chellenjlar bilan intellektual qizg'in muhit yaratilganligining guvohi bo'ling.

**Sherzod Mustafakulov**

Xalqaro Nordik universiteti rektori,  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

# MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	<b>3</b>
<b>Nordikda Bahor sayli!</b>	<b>4</b>
<b>Talabalar hayoti</b>	<b>5</b>
XNU tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarining ilmiy faoliyati samaradorligi monitoring qilindi	5
Xalqaro Nordik universiteti va Target international school maktabi rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi	6
Helsinki universiteti vakillarining tashrifi bo'lib o'tdi	6
XNU Ilmiy kengashida dissertatsiya ishi himoya qilindi	7
Yurtimizga ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi tashrif buyurdi	7
XNU taklifiga ko'ra yurtimizda bo'lib turgan ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi rasmiy doiralar bilan muzokaralar o'tkazmoqda	8
ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga tashrif buyurdi	8
ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi XNU prorektori hamrohligida Samarqand viloyatida bo'ldi	9
ICLEIning Sharqiy Osiyo mintaqasi direktori Shu Zhu boshchiligidagi delegatsiya Navoiy shahar hokimligiga tashrif buyurdi	9
Buxoro viloyati prokuraturasida "Prokuror sovrini" musobaqasi g'oliblarini taqdirlash tadbiri bo'lib o'tdi	10
Samarqandda xalqaro ekspertlar ishtirokida trening bo'lib o'tdi	11
O'zbekiston-Finlandiya oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik aloqalari kuchaytiriladi	11
Kitoblar mohiyati bayonlarda aks etdi	12
XNU ko'rgazmasi Tojikistonda namoyish etildi	12
XNUda kitob ulashish tadbiri an'ana tusini oldi	12
Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida xorijiy davlatlar universitetlarining birinchi xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi	13
Barhayot an'analar	14
"Zakovat" talabalar ligasining 8-turida adabiyotsevar, kitobxon jamoalar peshqadamlik qildilar	14
O'zbekiston bolalar ombudsmani XNUga tashrif buyurdi	15
Boyovutda "Ma'rifat ulashib"	16
Jamoamizning navbatdagi sayohat va madaniy hordiq manzili So'qoq qo'riqxonasi bo'ldi	17

# MUNDARIJA

Xalqaro Nordik universitetiga Janubiy Koreyaning Daegu universiteti  
vakillari tashrif buyurdilar

17

Xalqaro Nordik universiteti va Tojikistonning Sug'd viloyatidagi "O'zbek  
ma'naviyat va ma'rifat markazi o'tasida hamkorlik memorandumi  
imzolandi

18

Bo'stonliq tumanida "Ma'rifat ulashib"

18

O'zbekiston-Finlandiya: istiqbolli sohalarda hamkorlik kengayadi

19

Milliy o'yinlarga uyg'un dars

19

Xorijda qisqa vaqtida ilmiy daraja olish imkoniyati yaratiladi

20

Samarqandda xalqaro anjuman o'tkazildi

20

Sug'd viloyatidan "O'zbeklar ma'naviyat va ma'rifat markazi" delegatsiyasi  
tashrif buyurdi

20

XNU BMTning O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini qo'llab-  
quvvatlash borasidagi faoliyatida keng ishtirok etmoqda

21

XNU Ilmiy kengashida navbatdagi dissertatsiya ishi himoya qilindi

21

Ilm-fan va amaliyot samarasi - bolalar kelajagi uchun

22

Finlandiyaga ta'lif safari: uzuksiz ta'lif tizimi, o'qitish metodikasi,  
mustaqil ta'lif jarayonlari bilan tanishilmoqda

22

Inson xotirasi - muqaddas, qadri - ulug'

22

"Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasiga tashrif buyurildi

23

Talabalar hayoti "Zakovat" bilan yanada qizg'in!

23

Buxoroda matematika fani o'qituvchilari o'tasida musobaqa o'tkazildi |

23

Buxoroda g'olib ustozlar munosib taqdirlandilar

24

Kyungwoon universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi

24

XNUga Slovakiya Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Viktor  
Boretskiy tashrif buyurdi

25

Oybekday shoir yo'qdirkim, bir-ikki satrini soatlab o'qib, maroqlanish  
mumkin bo'lsa...

25

Toshkent xalqaro matematika olimpiadasining ochilish tadbiri bo'lib o'tdi

26

Kareliya AFU delegatsiyasi kutib olindi

27

Finlandiyadan tashrif buyurgan ustozlar - talabalar huzurida

27

TasIMO taqdirlash tadbiriga yetib kelgan Rovan universiteti delegatsiyasi  
yurtimizda bo'lib turibdi

28

Talabalar – Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuida

28

# MUNDARIJA

XNU dekani Tailandga yetib bordi

29

Samarqand shahriga mazmunli sayohat uyushtirildi

29

UYLS sammiti butun dunyo yosh liderlarini yoshlari imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida birlashtirdi

30

Talabalar - bo'lajak pedagoglar ta'lim jarayonini yuksak mahorat va san'at bilan boshqarishga tayyorlanmoqdalar

30

Universitet kengashining 8-son yig'ilishi bo'lib o'tdi

30

Fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda Finlandiya tajribasi o'rganilmoqda

31

"Menejment" ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanidan malakaviy imtihon o'tkazildi

31

Yakuniy imtihon haftaligida

32

O'zbekiston Iqtisodiyot Assambleyasini bilan memorandum imzolandi

32

Tabriklaymiz!

33

"Harbiy prokuror sovrini" g'oliblari taqdirlandilar!

34

Finlandiyada faxriy konsullar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda

34

Finlandiyada yozgi ta'til!

35

Finlandita elchisi bilan uchrashuv

35

Finlandiya parlamentida uchrashuv bo'lib o'tdi

35

Universitet kengashining 9-son yig'ilishi bo'lib o'tdi

36

Ilmiy faoliyat va amaliy tajribalar muvofiqlashtirilmoqda

36

Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnalining 2-soni nashr etildi

37

Uzoq istiqbolga mo'ljallangan loyihalar

37

XNU Yevropa Ittifoqi Sertifikati bilan taqdirlandi

37



**Talabalar hayoti |4-apr.|****Maxsus pedagogika (Logopediya)**

yo'nalishi talabalari Xalqaro autizm haqida axborot tarqatish kunida jamoat joylarida ushbu tashxis xususida keng ommanning xabardorlik darajasini oshirishga hissa qo'shdilar

Pedagogika kafedrasи katta o'qituvchisi **Zulfizar Baxadirova** boshchiligidagi bir guruh talabalarimiz Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazida "Autizm tashxisi qo'yilgan bolalarga psixologik-pedagogik yordam muammolari va zamonaviy yondashuv" mavzusida amaliy konferensiyada ishtirok etdilar.

**XNU tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarining ilmiy faoliyati samaradorligi monitoring qilindi |6-apr.|**

Monitoring doirasida tadqiqotchilarning o'z ish rejaliari asosida amalga oshirayotgan ishlari ko'rib chiqildi.



Jumladan, metodologik dasturlari, kurslardagi ishtiroki va sifat sertifikatlari, dissertatsiya ishlarining bajarilishi, OAK ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallar hamda Scopus tizimining davriy nashrlarida chop etilgan maqolalari kabi tegishli mezonlar bo'yicha hisobotlari tinglandi va baholandi.



## Xalqaro Nordik universiteti va Target international school maktabi rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi | 18-apr.|



Uchrashuvda xalqaro biznes va ITga ixtisoslashgan **Target maktabi** o'quvchilarini Nordik universiteti **Foundation** dasturi asosida oliv ta'limga puxta tayyorlash, hamkorlikda maktabni istiqbolli rivojlantirish dasturini ishlab chiqish borasida fikr almashildi.

Shuningdek, maktab o'quvchilariga universitetga kirish uchun kerakli ko'nikma va yo'llanmalar berib borishga kelishildi. Muzokara davomida hamkorlik yo'naliishlari belgilandi va **Memorandum** imzolandi.

## Helsinki universiteti vakillarining tashrifi bo'lib o'tdi | 18-apr.|

**Bugun XNUga Finlandiyada jamiyat, ta'lim va farovonlikka katta hissa qo'shib kelayotgan eng yirik ta'lim muassasasi delegatsiyasi tashrif buyurdi.**

Helsinki universiteti professor-o'qituvchilari, doktorant va magistrlaridan iborat delegatsiya a'zolariga ta'lim tizimi va universitet faoliyati haqida keng ma'lumotlar berildi. O'zaro fikr va tajribalar almashildi.

Har ikki oliygoh vakillarining uchrashushi o'ziga xos tarzda kechdi. Ayniqsa, o'zbekona qadriyatlari, milliy udum va o'yinlar, mehmondo'stlik an'analarini fin o'qituvchi va talabalarida unutilmas taassurot qoldirdi.



## XNU ilmiy kengashida dissertatsiya ishi himoya qilindi | 9-apr.|



XNU huzuridagi **08.00.03 - "Sanoat iqtisodiyoti"** ixtisosligi bo'yicha ilmiy kengashda **Qobiljon Isayev** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (**PhD**) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini himoya qildi.

Ma'ruzachi "**Ko'zi ojizlar ishtirokida sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari**" mavzusidagi himoya ishining dolzarbligi, tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy, amaliy tavsiyalar bilan batafsil tanishtirdi.

Ilmiy kengashda tadqiqot ishi keng muhokama etildi va munosib yoqlandi.

## Yurtimizga ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi tashrif buyurdi

XNU taklifiga ko'ra Toshkent shahrida bo'lib turgan **ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi** O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga tashrif buyurdi.

*ICLEIning Sharqiy Osiyo mintaqasi direktori Shu Zhu* boshchiligidagi nufuzli delegatsiya XNU prorektori **Muhammadsiddiq Amonboyev** hamrohligida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (AKIS) direktori **Shuhrat Otajonov** bilan uchrashdi.

Muzokaralarda jarayonlarni avtomatlashtirish, resurslarni tejash va yuqori daromad olish borasidagi xalqaro tajribalar haqida so'z bordi. Xorijiy mehmonlarga O'zbekistondagi AKIS tizimi va agrar soha ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati bo'yicha ma'lumotlar berildi hamda hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.

ICLEI delegatsiyasining yurtimiz rasmiy doiralari bilan muzokaralari davom etmoqda.




**XNU taklifiga ko'ra yurtimizda bo'lib turgan ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi rasmiy doiralar bilan muzokaralar o'tkazmoqda |18-apr.|**

**ICLEI yetakchilari O'zbekiston Respublikasi transport vazirligiga** tashrif buyurdilar. Shuningdek, nufuzli mehmonlar Toshkent shahar hokimligida ham bo'ldilar.

Uchrashuvlarda xalqaro ekspertlar shaharlarning barqaror rivojlanishi uchun zarur strategiya va harakatlar, innovatsion ekotizimni barpo etish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdilar.

ICLEI delegatsiyasi a'zolari hukumatimiz vakillariga qayta tiklanadigan energiya manbalarini qabul qilish va yashil qurilish amaliyoti borasida texnik maslahat va tavsiyalar berdilar.

**for Sustainability**



**ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga tashrif buyurdi |18-apr.|**



Muhim uchrashuvda **BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlarini** O'zbekistonda amalga oshirish borasida so'z bordi.

Mahalliy hukumatlarga barqaror rivojlanishga yordam beruvchi ICLEI xalqaro tashkiloti kotibiysi katta maslahatchilari bilan Toshkent shahrining kelajagi masalalari ko'rib chiqildi.


Yashil rivojlanish, past uglerodli va aqlii ishlab chiqarishga o'tishni tezlashtirish chora-tadbirlariga e'tibor qaratildi.

## **ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasi XNU prorektori hamrohligida Samarqand viloyatida bo'ldi |19-apr.|**

Global hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi xalqaro tashkilot vakillari bilan Samarqand shahar hokimi Fazliddin Umarov o'rtaida muzokara bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda xalqaro almashinuv va o'rganish imkoniyatlarini taqdim etuvchi assotsiatsiyaga a'zolik istiqbollari xususida so'z bordi. Shahar uchun texnologik va salohiyatni oshirish yordamlari taklif etildi.


Tashrif davomida Samarqandning diqqatga sazovor joylariga sayohat uyushtirildi.



## **ICLEIning Sharqiy Osiyo mintaqasi direktori Shu Zhu boshchiligidagi delegatsiya Navoiy shahar hokimligiga tashrif buyurdi |20-apr.|**

Butun dunyo bo'ylab shaharlarning barqaror kelajagini qurishga ko'maklashishni maqsad qilgan xalqaro tashkilot vakillari Navoiy shahar hokimi Dilmurod Ergashev va viloyat hokimining o'rinososari Elbek G'afforov bilan muzokara o'tkazdilar.

Uchrashuvda Navoiy shahrining past uglevodli sanoatga o'tish ehtiyojlariga e'tibor qaratildi. Dastur menejerlari tomonidan Xitoy, Koreya investitsiya loyihalari taqdimotlari o'tkazildi.



**Buxoro viloyati prokuraturasida "Prokurator sovrini" musobaqasi g'oliblarini taqdirlash tadbiri bo'lib o'tdi [19-apr.]**

**Buxoro viloyati prokururatasi, Xalqaro Nordik universiteti (XNU) va IDC hamkorligida** ilk bor o'tkazilgan musobaqa g'oliblari samimiy qutlandi. Jahon bilim maydonlarida muvaffaqiyat qozonayotgan buxorolik o'quvchilar safini yanada kengaytirish maqsadida o'tkazilgan musobaqa yangi bilimdonlarni saralab olish imkonini bergani e'tirof etib o'tildi.

Tadbirda XNU rektori **Sherzod Mustafakulov** g'oliblarga o'z tabrigini yo'lladi. Shuningdek, ta'lif sifatini oshirishda intellektual musobaqalar va ularning roliga keng to'xtaldi.

Tadbirda viloyat miqyosida javoblarni eng tezkor jo'natgan va eng yuqori ballarni qo'lga kiritgan 7 nafar o'quvchi va ularning ustozlari, ota-onalari taqdirlandilar. G'oliblar va ularning yaqinlari dil so'zlari hamda tashkilotchilarga minnatdorchiliklarini izhor etdilar.



Ma'lumot o'rniда, "**Prokurator sovrini**" musobaqasida Buxoro viloyatidagi 528 ta umumiyo'rta ta'lif maktabidan 58 ming nafarga yaqin o'quvchilar ishtirok etdilar.

3-sinflar bo'yicha 2681 nafar, 4-sinflar bo'yicha 2870 nafar o'quvchi faol ishtirok etib, ulardan 134 nafari tuman (shahar) prokurorlari tomonidan taqdirlandilar.

## **Samarqandda xalqaro ekspertlar ishtirokida trening bo'lib o'tdi |19-apr.|**

**Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD)** va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi qo'shma loyihasi doirasida trening tashkil etildi.

"Sug'urta va risklarni moliyalashtirish mexanizmini joriy etish" mavzusidagi treningda loyiha ishtirokchisi bo'lgan Xalqaro Nordik universiteti (XNU) Moliya ishlari bo'yicha prorektori Nuriddin Murodullayev ham muhim takliflarni ilgari surdi.

Trening dastur ishtirokchilarining sug'urta sektorini rivojlantirishdagi faoliyatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qildi.



## **O'zbekiston-Finlandiya oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik aloqalari kuchaytiriladi |20-apr.|**

**Finlandiyaning Markaziy Osiyodagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raisanen Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irotboy Sharipov huzurida bo'ldi.**

Uchrashuvda O'zbekiston-Finlandiya o'rzasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan loyiҳalar va yangi hamkorlik yo'nalishlari haqida fikr almashildi.

Shuningdek, Finlandiyaning eng muvaffaqiyatli ta'lim loyihasi bo'lgan Xalqaro Nordik universiteti faoliyati xususida so'z bordi. Har ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rzasida hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari ko'rib chiqildi.



## Kitoblar mohiyati bayonlarda aks etdi |20-apr.|

Talabalarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Talabalarning ta'lim yo'naliishlaridan kelib chiqqan holda mutolaa uchun kitoblar tanlandi.

Jumladan, "**Yalang'och iqtisodiyot: murakkab sohaning sodda qiyofasi**", "**Qizil toshbo'ron**" va "**Uch qalb**" kabi qator badiiy asarlar qiziqish bilan o'qildi hamda ularning mohiyati yuzasidan bayonlar yozildi.



## XNU ko'rgazmasi Tojikistonda namoyish etildi |22-apr.|



Tojikiston fan va ta'lim vazirligi, "**Xalqaro dasturlar markazi**" hamkorligida "**Xorijiy davlatlar universitetlarining birinchi xalqaro festival-ko'rgazmasi - 2024**" anjumani o'tkazildi.

Dushanbe shahrida o'tkazilgan festivalda Xalqaro Nordik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori **Odil Qo'ssinov** boshchiligidagi delegatsiya ham ishtirok etdi.

## XNUda kitob ulashish tadbiri an'ana tusini oldi |22-apr.|

**"Ma'rifat ulashib"** loyihasi doirasida **"Bookshare"** tadbiri uyushqoqlik bilan o'tkazildi.

Tadbir kitobsevarlar uchun qiziqarli va manfaatli o'tdi. Professor-o'qituvchi va talabalar yuzdan ziyod so'nggi o'qigan yangi kitoblarini o'zaro almashdilar.



**Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida xorijiy davlatlar universitetlarining birinchi xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi |23-apr.|**

Ochilish marosimi qator davatlarning nufuzli oliv o'quv yurtlari delegatsiyalari, Tojikiston Respublikasining tegishli vazirlik va idoralari faxriy mehmonlari ishtirokida o'tdi.

Anjuman doirasida Dushanbe ekspomarkazida ta'lim sohasidagi yirik ko'rgazmalardan biri o'tkazildi. Xorijiy ta'lim va xorijda ishlash istagidagi yoshlarga yetakchi universitetlar haqida bevosita ma'lumot olish imkoniyati yaratildi.

**Tojikistonlik o'zbek yoshlari ko'rgazmada ishtirok etayotgan Xalqaro Nordik universiteti (XNU) mas'ullari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'tkazdilar.** Qo'shni davatlarda ham o'z o'rnnini ishonch bilan mustahkamlab borayotgan Nordik universitetidagi ta'lim yo'naliishlari, ayniqsa xalqaro qo'shma diplom olish imkoniyatlari abituriyentlarda katta qiziqish uyg'otdi.



## Barhayot an'analar |23-apr.|

**Nordik talabalarini va ustozlari "Milliy qadriyatlar sayli"da ishtirok etdilar.**

Adiblar xiyobonida adabiy-ma'rifiy haftalikning ochilishi bo'lib o'tdi. Anjumanda hududlarning milliy urf-odat va qadriyatları ko'rgazmalari hamda konsert dasturi namoyish etildi.

"**Milliy qadriyatlar sayli**"da talabalarimiz ijrosida kuy-qo'shiqlar jarang sochdi. Adabiy-ma'rifiy suhbatlar o'tkazildi.



**"Zakovat" talabalar ligasining 8-turida adabiyotsevar, kitobxon jamoalar peshqadamlik qildilar |24-apr.|**

Kitobxonlik haftaligi doirasidagi intellektual turnirda bilimdonlarning mohir shoir, yetuk romannavist Oybek hayoti va ijodidan xabardorlik darajalari sinovdan o'tkazildi.




## O'zbekiston bolalar ombudsmani XNUga tashrif buyurdi |25-apr.|

**XNU rahbariyati va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili, yuridik fanlari doktori, professor Surayyo Rahmonova o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.**

Uchrashuvda bolalarning ta'lim va boshqa zarur huquqlarini ta'minlashning kuchli tizimini shakllantirish, ularning manfaatlari yo'llidagi tashabbuslarni yanada kengaytirishda hamkorlik masalalarida so'z bordi.

Shuningdek, ijtimoiy sohalardagi islohotlar samaradorligi, umrbod ta'lim, bolalar va yoshlarning jamoatchilik ishlarida keng ishtirokini ta'minlash borasida fikr almashildi.



## Barcha o'zi uchun yangi do'st - kitob tanladi! |25-apr.|

"**Yangi asr avlodи**" nashriyoti universitetimizda bugungi kitobxonlar talabiga javob beruvchi turli yo'nalishlar va janrlardagi kitoblar ko'rgazmasini tashkil etdi.

"**Ma'rifat ularshib**" loyihasi doirasida talaba-yoshlarning badiiy savodxonligini oshirish maqsadida o'tkazilgan ko'rgazma barcha ustozlar va talaba-yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Hamma o'zi uchun yangi do'st - yangi kitoblar tanlashga muvaffaq bo'ldi.



## **Boyovutda "Ma'rifat ulashib" |28-apr|**

*"Ma'naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha mustahkam bo'ladi"*

**Shavkat Mirziyoyev**

**Nordik universiteti (XNU)ning ma'rifat ulashuvchilar guruhi respublikamizning turli hududlaridagi yoshlar bilan muloqot qilish uchun yo'l oldi.**

Xususan, "**Ma'rifat ulashib**" loyihasi doirasida XNU kafedralari professor-o'qituvchilari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolaridan iborat ma'naviyatchilar Sirdaryo viloyatining Boyovut tumaniga tashrif buyurdilar.

Tashrifdan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchi-yoshlar uchun maroqli suhbat yusushtirish, yurtimizdagi yoshlar siyosati va ta'limga oid islohotlardan xabardorlik darajasini oshirish, ularni ijod va yaratuvchilikka undash, kitob mutolaasiga chorlashdir.

Dastlab tumandagi **42-umumiyl o'rta ta'lim maktabida** Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi vakillari, maktab jamoasi va o'quvchilar ishtirotkida uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda Xalqaro Nordik universiteti departamenti boshlig'i **Najmiddin Qodirov** universitetda yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi bilan tanishtirdi. U o'z ma'ruzasida ta'limda ma'rifatning o'rniga keng to'xtaldi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori **Sitora Shomurodova** o'quvchi-yoshlar bilan adabiy suhbat qurdi. U o'z ma'ruzasida adabiyot namoyandalari va kitobxonlik madaniyatiga e'tibor qaratdi. She'riyatning komil inson konsepsiyasida tutgan o'rnidan kelib chiqib, o'quvchi-yoshlarning mutolaa va ijodkorlikka qiziqishlarini oshirdi.

Uchrashuvda XNUning Musiqa ta'limi kafedrasini mudiri, professor **Qurban niyoziy Panjiyev** ilm-fan rivojida san'atning roli, kuy-qo'shiqlar orqali estetik zavq olish sirlari borasida ma'ruba qildi. Tadbirda XNU Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari o'zlarining badiiy chiqishlari bilan davraga fayz bag'ishladilar.

Shuningdek, tashrif davomida mактабда XNU burchagi tashkil etildi. Universitet faoliyati aks etgan ko'rgazmali qurollar asosida o'quvchi-yoshlarni oliy ta'limga jalb etishga e'tibor qaratildi, o'qishga intilish va qiziqishlari oshirildi.

Xuddi shunday samimiy ruhdagi ma'rify uchrashuvlar **Boyovut** tumanidagi **46 va 52-umumiyl o'rta maktablarda** ham yuqori saviyada tashkil etildi.



## **Jamoamizning navbatdagi sayohat va madaniy hordiq manzili So'qoq qo'riqxonasi bo'ldi |29-apr.|**

Universitet jamoasining dam olish kuni mazmunli tashkillanib, So'qoq o'rmonining bahavo tabiatidan baha olindi.

Tog'lar va uning bag'ridagi g'or, chashma, sharshara hamda xilma-xil manzaralar barchaga zavq bag'ishladi.



## **Xalqaro Nordik universitetiga Janubiy Koreyaning Daegu universiteti vakillari tashrif buyurdilar |29-apr.|**

Nufuzli universitet vakillari bilan uchrashuvda ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, memorandum imzolash, "2+2" ta'lim dasturlarini amalga oshirish xususida so'z bordi.

Tashrif davomida nufuzli mehmonlar XNU faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Yangi texnologiyalarga asoslangan ta'lim manbalari va resurslar borasida o'zaro tajribalar almashildi.



## Xalqaro Nordik universiteti va Tojikistonning Sug'd viloyatidagi "O'zbek ma'nnaviyat va ma'rifat markazi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi |29-apr.|

O'zaro muzokaralarda kadrlar tayyorlash sohasida qo'shma loyiha, dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish, ilmiy tadqiqotlar, qo'shimcha kasbiy ta'lim va amaliyot uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash kabi hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.



## Bo'stonliq tumanida "Ma'rifat ularashib" |29-apr.|

Nordik universiteti tomonidan ziyorilar guruhi tuzilib, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi 13 va 15-umumiy o'rta ta'lim maktablarida davra suhbatlari tashkil etildi.

"Ma'rifat ularashib" loyihasi doirasidagi uchrashuvlarda kelajak avlodni tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish, hayot-mamot masalasi sanalgan ma'nnaviy tarbiyasini yuksaltirishga hissa qo'shish maqsadlariga e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda Bo'stonliq tumanining Maktabgacha va muktab ta'limi bo'limi vakillari, XNU professor-o'qituvchilari, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faollari o'quvchi-yoshlarni yangi maqsadlar sari odimlashga chorlovchi ma'ruzalar qildilar.

Xususan, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi v.b. Xolmurod Salimov "Adabiyot va kitobxonlikning yoshlar kamolotidagi ahamiyati" mavzusidagi ma'ruzasida barcha bilimlar manbai kitob ekani, bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun barcha imkoniyatlар yaratilayotgani, bu shart-sharoitlardan o'quvchilar samarali foydalanishi lozimligi xususida so'z yuritdi.

Shuningdek, universitet va hamkor tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar, onlayn darslar, Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi - TasIMO va intellektual onlayn musobaqalar xususida so'zlandi. Yoshlar bu imkoniyatlardan unumli foydalaniib, o'z bilim va iqtidorlarini charxlab borishga undaldi.



## O'zbekiston-Finlandiya: istiqbolli sohalarda hamkorlik kengayadi |2-may|

Nordik universitetiga Finlandiya Tashqi ishlar vazirligining O'rta Osiyo boshqarmasi vakillari janob Santeri Eriksson va Mari Vidgren tashrif buyurdilar.

XNU boshqaruv kengashi raisi Alisher Jo'rayev va nufuzli mehmonlar o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Finlandiya va O'zbekiston o'rtasida turli loyihalarni rivojlantirishda XNUdan o'ziga xos platforma sifatida foydalanish va istiqbolli sohalarda hamkorlikni rivojlantirish borasida muzokara o'tkazildi.



## Milliy o'yinlarga uyg'un dars |3-may|



"**Bolalar folklori**" fanidan "**Bolalar o'yin qo'shiqlari**" mavzusida ochiq dars o'tkazildi.

Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi **Sitorabonu Shomurodova** tomonidan o'tilgan darsda bolalik zavqini beruvchi milliy o'yinlar o'ynaldi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ochiq havoda hozirgi kunda unutilib borayotgan "**Oq terakmi, ko'k terak**", "**Solay-solay**", "**Besh tosh**", "**Laylak keldi**" kabi milliy o'yinlarimizni o'ynab, qayta jonlantirdilar, qo'shiqlar ijro etdilar.

## Xorijda qisqa vaqtida ilmiy daraja olish imkoniyati yaratiladi |3-may|

XNUga Janubiy Koreyaning aSSIST universiteti vakillari tashrif buyurdilar. Xorijiy delegatsiya a'zolari bilan muloqot o'tkazilib, universitetning ta'lim imkoniyatlari xususida ma'lumotlar olindi.

Uchrashuvda aSSIST universitetiga o'qishga kirib, Yevropaning qator davlatlarida magistr, doktorlik darajalari va ikki tomonloma diplomlar olish, eng muhammi o'qish vaqtini tejash (magistraturada o'qish - 1 yil) kabi qator takliflar ilgari surildi.

XNU talabalari uchun istiqbolli mazkur yo'naliishlarda kelishuvlar amalga oshiriladigan bo'ldi.



## Samarqandda xalqaro anjuman o'tkazildi |5-may|



TDIU Samarqand filialida "Markaziy Osiyoda barqaror mintaqaviy rivojlanish" nomli II xalqaro anjuman o'tkazildi.

Anjuman O'zbekiston Respublikasi oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Xalqaro Mintaqaviy fanlar assotsiatsiyasi (RSAI-Portugaliya) hamkorligida o'tkazildi.

Anjumanda AQSh, Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya, Hindiston kabi qator davlatlardan ekspert-ma'ruzachilar, shuningdek, XNU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov, Moliya ishlari bo'yicha prorektor Nuriddin Murodullayev ishtiroy etdilar.

## Sug'd viloyatidan "O'zbeklar ma'nnaviyat va ma'rifat markazi" delegatsiyasi tashrif buyurdi |7-may|

XNU va markaz rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv o'tkazilib, Tojikiston Respublikasidagi yoshlarning, xususan o'zbek millatiga mansub o'gil-qizlarni universitetga tayyorlov maktabi, bakalavriat, magistratura va doktoranturada o'qish istaklarini qo'llab-quvvatlash xususida fikr almashildi.

Uchrashuv davomida xorijiy yoshlarga tanlov asosida o'qishga kirish imkoniyatlarini yaratish maqsadlarini ko'zda tutuvchi Bitim imzolandi.



## XNU BMTning O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatida keng ishtirok etmoqda |7-may|



XNU tadqiqotchilari BMT Taraqqiyot dasturining granti asosida mamlakatimiz mehnat bozoriga oid muammolarni ilmiy asosda yechishga qaratilgan "Farg'ona vodisida aholini pandemiyadan keyingi iqtisodiyotga ko'nikmalarini moslashtirish" loyihasi doirasida ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Bugun universitet professor-o'qituvchilari, BMTTD ishtirokida davra suhbatibarlik barometrlarini metodologiyasi taqdimoti o'tkazildi. Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy, uslubiy masalalar keng muhokama etildi.

## XNU Ilmiy kengashida navbatdagi dissertatsiya ishi himoya qilindi |8-may|

**XNU huzuridagi Ilmiy kengashda 08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit (iqtisodiyot fanlari)" ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi olish uchun dissertatsiya ishi himoya qilindi.**

Himoyachi Jasurbek Qodirov **"Davlat-xususiy sherikchiligi asosida iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiyaviy salohiyatini oshirish istiqbollari ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ misolida)"** mavzusidagi himoya ishining dolzarbliji, tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy, amaliy tavsiyalar bilan batafsil tanishtirdi. Barcha savollarga atroflicha javoblar berdi.

Ilmiy kengashda tadqiqot ishi keng muhokama etildi va munosib yoqlandi.

Bayram arafasida o'tkazilgan himoya ishida XNU Ilmiy kengash raisi barcha a'zolarni **9-may - Xotira va qadrlash kuni** bilan samimiy tabrikldi.



## Ilm-fan va amaliyot samarasi - bolalar kelajagi uchun |8-may|

Poytaxtimizdagi **37-ixtisoslashtirilgan maktabda** Xalqaro Nordik universiteti, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hamkorligida amaliy konferensiya o'tkazildi.

XNU Pedagogika kafedrasi professor-o'qituvchisi Zulfizar Bahodirova tashabbusi bilan o'tkazilgan konferensiyada alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish muammo va yechimlari tahlil etildi. Interfaol usulda o'tgan konferensiya talabalar uchun ko'chma seminar-dars vazifasini ham o'tadi.

Shuningdek, XNUda **9-may** - "Xotira va qadrlash kuni"ga bag'ishlangan "**Mehr ularshib**" aksiyasida yig'ilgan tuhfalar ixtisoslashgan maktab o'quvchilari uchun bayram sovg'asi bo'ldi.



## Finlandiyaga ta'lim safari: uzluksiz ta'lim tizimi, o'qitish metodikasi, mustaqil ta'lim jarayonlari bilan tanishilmoqda |8-may|

Muvaffaqiyatli ta'lim tizimiga ega **Finlandiyada** bolalar bilimi va salomatligiga ko'ra ajratilmaydi. XNU mamlakatimiz va ushbu xorijiy davlat maktablari, universitetlari o'rtaida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda ko'prik vazifasini o'tamoqda.

Yurtimizning 10 ta yetakchi oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari XNU prorektori **Odiljon Qo'shinov** boshchiligidagi **Finlandiyada** malaka oshirmoqdalar.

Ta'lim delegatsiyasi uchun **Jyväskylä** shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari va universitetlarga tashriflar uyushtirilyapti.



## Inson xotirasi - muqaddas, qadri - ulug'! |8-may|



## "Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasiga tashrif buyurildi |9-may|

Xalq ardog'idiagi qator kasb egalari, yurtimiz ziyolilari, olimlar, jumladan XNU rahbariyati Nurafshon shahrida 9-may - shonli sana munosabati bilan barpo etilgan "**Matonat madhiyasi**" yodgorlik majmuasi ochilishida ishtirok etdilar.

G'alaba bog'ining markazida qad rostlagan ushbu obida yurtimizdag'i barcha onalarga qo'yilgan haykaldir. Majmuaga tashrif buyurgan ustozlarimiz ushbu yodgorlik kelgusida yoshlarni millatimizga xos fazilatlarni teran anglash va ularni qadrashga undashini e'tirof etib o'tdilar.



## Talabalar hayoti "Zakovat" bilan yanada qizg'in! |10-may|



O'quv yili davomida Nordik "**Zakovat**" klubi o'ndan ortiq talabalar jamoalarini o'z atrofida birlashtirdi.

Intellektual o'yinlar talaba-yoshlarning bilimlarini charxlash bilan birga, ularda jamoaviylik, bahslashish madaniyatini shakllantirdi, universitetda do'stlik muhitini yaratishga xizmat qildi.

Talabalar ligasining **10-tur o'yinlari** ham muvaffaqiyatli yakunlanib, universitet rahbariyati tomonidan g'olib jamoalarga mukofotlari topshirildi.

## Buxoroda matematika fani o'qituvchilari o'rtasida musobaqa o'tkazildi |10-may|

Buxoro viloyati hokimligi, viloyat prokururasi, XNU va IDC hamkorligida viloyatdag'i muallimlar o'rtasida matematika fanidan musobaqaning 2-bosqichi o'tkazildi.

Mazkur hal qiluvchi bosqich adolat, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ta'minlash maqsadida offlayn tashkil etildi. Unda ikkinchi bosqichga tavsiya etilgan 48 nafar muallim ishtirok etdi. Musobaqada ilg'or pedagoglar aniqlab olinib, munosib taqdirlanadi.

Eslatib o'tamiz, musobaqada 1, 2 va 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarni zamonaviy planshet va smartfonlar kutmoqda. 1-o'rinni egallagan ishtirokchiga XNU tomonidan Finlandiyada stajirovka uchun yo'llanma ham taqdim etiladi.



## Buxoroda g'olib ustozlar munosib taqdirlandilar |11-may|

Yurtimizda aniq fanlarni o'qitish jarayoniga ilg'or metodlar, yangi pedagogik texnologiyalarni keng tadbiqu etayotgan, o'quvchilarning matematika faniga qiziqishini oshirayotgan fidoyi o'qituvchilar safi keng.

Ayniqsa, **Buxoro viloyatida** ta'lif sifati va samaradorligini yuksaltish, o'quvchilarga puxta matematik bilimlar berib, zafar quchishlariga zamin yaratayotgan ustozlarning mehnatlari e'tirofga loyiq.

**Buxoro viloyati hokimligi, viloyat prokuraturasi, XNU va IDC hamkorligida** viloyatdagi eng ilmli, o'z ustida ishlaydigan muallimlarni aniqlash va rag'batlantirish maqsadida matematika fanidan musobaqa o'tkazildi.

Bugun viloyat prokururasida ikki bosqichli musobaqada eng yuqori natijalarni qayd etib, g'olib bo'lgan ustozlarga ehtirom ko'rsatildi va munosib taqdirlandilar.

Taqdirlash tadbirdirida **Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripov, Buxoro viloyati prokurori Ulug'bek Hamdamov, Buxoro DPI rektori Bahodir Ma'murov, Qorako'l tumanidagi 42-maktab direktori Xudoyor Jo'ravayev** so'zga chiqdilar barcha ishtirokchi ustozlar va g'olib muallimlarni samimiy tabrikladilar. Shuningdek, ustozlarning dil so'zlari tinglandi, ta'lif ravnaqi uchun choratadbirlarni ko'rish borasida fikr-mulohazalar almashildi.



## Kyungwoon universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi |14-may|

**XNUga Janubiy Koreyaning Gumi shahrida** joylashgan **Kyungwoon universiteti** xalqaro aloqalar departamenti boshlig'i, **professor Joy Lu Young Chun** tashrif buyurdi.

Nufuzli mehmon ushbu xorijiy universitetda turli ta'lif yo'nalishlarida tadqiqotlar amalga oshirilishi, tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatdoshlik borasidagi ustunliklariga to'xtaldi.

Muzokara davomida **XNU** va **Kyungwoon universiteti** o'rtasida Anglashuv memorandumi imzolanib, talabalar almashtish, ikki tomonlhma diplom uchun o'qitish dasturlarini amalga oshirishga kelishildi.



## XNUga Slovakiya Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Viktor Boretskiy tashrif buyurdi |14-may|

Elchi janoblarining XNUga amaly tashrifi bo'lib o'tdi.

Dastlab janob **Viktor Boretskiy** universitet talabalari va o'qituvchilari bilan muloqot o'tkazdi. Ushrashuvda Slovakiya Respublikasi va uning O'zbekiston bilan o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy va ta'lif sohasidagi aloqalari haqida keng ma'lumotlar taqdim etdi.

Muloqot davomida qiziqarli savol-javoblar bo'lib o'tdi. Talabalar "Work and travel", talabalar almashish va grant dasturlarida ishtirok etish borasida o'zlarini qiziqtirgan barcha savollariga javoblar oldilar.

Shuningdek, elchi Viktor Boretskiy va XNU rahbariyati o'rtaida muloqot bo'lib o'tdi. Slovakiya universitetlari va XNU o'rtaida hamkorlikni yo'lga qo'yishga kelishildi.

Uchrashuv so'ngida elchi janoblari universitet dil izhorlari kitobiga o'zining tilaklarini yozib qoldirdi.



## Oybekday shoir yo'qdirkim, bir-ikki satrini soatlab o'qib, maroqlanish mumkin bo'lsa... |17-may|

Adiblar xiyobonida Xalqaro Nordik universiteti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti hamkorligida hisobot konsert dasturi namoyish etildi.

"Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashda Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning badiiy merosi" nomli dastur avvalida ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi Oybek haykali poyiga gullar qo'yildi.

Nordik ansambl tomonidan Davlat Madhiyasi ijro etildi.

Anjumanda ishtirok etgan XNU rektori, professor Sherzod Mustafakulov XX asr o'zbek adabiyotiga bebaho hissa qo'shgan Oybek shaxsiyati va ijodiyotiga chizgilar berib o'tdi.

XNU dotsenti, shoir Sitorabonu Shomurodova Oybekning go'zal she'riyati, yetuk romannavistligi borasida o'z mushohadalarini yoshlarga yetkazdi, satrlaridan namunalar keltirdi. Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari o'z badiiy chiqishlarida Oybek qalamiga mansub she'larga nazar soldilar.

## Toshkent xalqaro matematika olimpiadasining ochilish tadbiri bo'lib o'tdi | 18-may |

Ochilish tadbirida Jahon banki, UNICEF xalqaro tashkiloti, Kareliya amaliy fanlar universiteti (Finlyandiya) va UzReport TV kanali, IDC (Intelligence Development Center) ta'lif markazi rahbariyatlari, 300 nafar mahalliy va xorijiy o'quvchi-ishtirokchilar, ularning ota-onalari hamda ustozlari ishtirok etishdi.

- Ilm egalarini kashf etish maqsad qilingan Toshkent xalqaro olimpiadasining dastlabki bosqichlarida respublikamiz va 24 ta xorijiy mamlakatning yosh matematiklari katta qiziqish bilan faol ishtirok etishgani quvonarlidir.

Fursatdan foydalanib, final bosqichiga qadar yetib kelgan Siz, aziz ishtirokchi-o'quvchilarni tabriklayman va hal qiluvchi bellashuвлar hamda bilim olish yo'lidagi sa'y-harakatlarinǵizda muvaffaqiyat tilayman.



- Mamlakatda ta'lif sifatini yuksaltirish va uzlusiz milliy ta'lif tizimini isloh qilishni qo'llab-quvvatlashda aniq maqsadli tashabbuslar muhimdir.

Shu ma'noda, Xalqaro Nordik universiteti, Jahon banki va qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan xalqaro matematika olimpiadasi mamlakatda ta'lif rivojini ta'minlash, aniq fanlar bo'yicha ilmli yoshlarni yetishtirishga xizmat qiladi.



- Ilk bor o'tkazilayotgan Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi o'quvchilar va o'qituvchilar uchun katta rag'bat vazifasini o'taydi.

Ishtirokchilar safida qizlarning ko'pligi ham meni quvontirmoqda. Matematika fani birmuncha qiyinroq bo'sada o'g'il bolalar qatorida qizlar ham puxta o'rganishayotgani, o'z bilimlarini xalqaro miqyosdagi olimpiadada dadil namoyish etishga intilishayotgani ta'lif tizimida yaxshi natijadir.

Sizlarning finalga qadar yetib kelganingizning o'zi g'olibligingiz va ushbu g'alabangiz bilan barchangizni tabriklayman!



**TasIMOning final bosqichi**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan saralab olingan o'quvchilar hamda **10 ta xorijiy mamlakat**dan tashrif buyurgan jami **300 nafar o'quvchi-yoshlар** ishtirokida o'tdi.

Final bosqich ikki guruhga bo'lingan holda o'tkazildi. **3-9-sinf o'quvchilari** o'rtaсидаги bellashuv barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarda o'tkazildi.

## Kareliya AFU delegatsiyasi kutib olindi |19-may|

TasIMO xalqaro olimpiadasining o'tkazilishida hamkorlik qilgan Kareliya amaliy fanlar universiteti (Finlandiya) delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Kareliya AFUning 7 nafar rahbar kadrlaridan iborat delegatsiya a'zolari matematika fanining ahamiyatini e'tirof etib, ushbu nufuzli bellashuv matematik bilim egalarining iqtidorini kelgusida jamiyat rivoji yo'lida safarbar etishda qo'l kelishiga ishonch bildirdilar.




## Finlandiyadan tashrif buyurgan ustozlar - talabalar huzurida |22-may|



XNU hamkor Karelia amaliy fanlar universitetidan tashrif buyurgan ustozlar talabalar bilan uchrashuv o'tkazib, Finlandiyada ta'lif olish xususida qiziqarli ma'lumotlar berdilar.



Talabalar Finlandiyada ta'lif olish imkoniyatlari, qo'shma dasturlar, o'quv yili davomida talabalar almashinushi borasida o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga fin ta'lif ekspertlaridan javoblar oldilar.



## TasIMO taqdirlash tadbiriga yetib kelgan Rovan universiteti delegatsiyasi yurtimizda bo'lib turibdi |22-may|

Xalqaro Nordik universitetining hamkorı - Amerika Qo'shma shtatlaridagi nufuzli davlat tadqiqot universiteti vakillari uchun Samarqand shahri bo'ylab sayohat uyuştirildi.

Bu qadimiylar, tarixiy azim shaharning diqqatga sazovor joylari, mahobatli me'moriy obidalari xorijiy mehmonlarda katta tassurot qoldirmoqda.



## Talabalar - Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuida |23-may|



Sirtqi ta'lrim talabalari uchun yakuniy imtihonlar haftaligi o'tkazildi. Imtihondan keyingi vaqlarni mazmunli tashkillash maqsadida poytaxtimizning e'tiborga molik joylariga sayohat uyuştirildi.

Talabalar Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuida bo'ldilar va u yerda joylashgan "**Qatag'on qurbanlari xotirasi**" muzeyidagi tarixiy hujjatlar, eksponatlar bilan tanishdilar.

Shuningdek, Muzqaymoq party, fotosessiya tadbirlari bilan talabalarga xush kayfiyat ulashildi.

## XNU dekani Tailandga yetib bordi |23-may|

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani **Elshod Umarov** Tailandda o'tkazilayotgan Butunjahon Yoshlar harakati sammitining ochilish marosimida ishtirok etdi.

Sammit doirasida 45 ta davlatdan tashrif buyurgan delegatlar dunyo yoshlarining imkoniyatlarini kengaytirish strategiyalarini almashadilar va diplomatik ko'nikmalarini oshiradilar.



## Samarqand shahriga mazmunli sayohat uyushtirildi |25-may|

XNUga tashrif buyurgan AQShning Rovan universiteti vitse-prezidenti Entoni Mishel Louman boshchiligidagi delegatsiya a'zolarida Samarqand shahrida bo'ldilar.

Azim shaharning diqqatga molik tarixiy obidalari, xalqimiz madaniyati va qadriyatlari aks etib turgan osori-atiqlar mehmonlarda katta hayrat uyg'otdi.

Amir Temur maqbarasi (Go'ri Amir) me'moriy yodgorligi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi va bu benazir alloma nomi bilan bog'liq muzeyga sayohatda amerikalik hamkorlarimiz qiziqarli tarixiy ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



**UYLS sammiti butun dunyo yosh liderlarini yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish yo'lida birlashtirdi |27-may|**



Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani **Elshod Umarov** Tailandda o'tkazilgan Butunjahon yoshlar harakati sammitida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.



Sammitda **45 ta mamlakatning** yosh delegatlari barqaror ta'limning ijtimoiy adolat va bolalar inklyuzivligini ta'minlashdagi o'rni hamda ahamiyati, mahallalarda yoshlar bandligi masalalarini tanqidiy, tahliliy ko'rib chiqdilar.

Sammit davomida ta'llimga to'g'ri yondashuvchi kelajak yetakchilari tayyorlandi.

**Talabalar - bo'lajak pedagoglar ta'lim jarayonini yuksak mahorat va san'at bilan boshqarishga tayyorlanmoqdalar |30-may|**



**Universitet kengashining 8-son yig'ilishi bo'lib o'tdi |31-may|**



Kengash yig'ilishida o'ndan ortiq dolzarb masalalar ko'rildi va muhokama qilindi.

## Fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda Finlandiya tajribasi o'rganilmoqda |3-iyн.|

Xalqaro Nordik universiteti, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Finlandiya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Helsinki universiteti huzuridagi Qonun ustuvorligi markazi hamkorligida seminar o'tkazildi.

Ombudsman kotibiyati xodimlari uchun o'tkazilayotgan seminarda Finlandiya Adliya vitse-kansleri Mikko Pumalainen o'z tajribalari bilan bo'lishdi. Ombudsman tomonidan fuqarolarning murojaat va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartiblari bo'yicha fin tajribalarini yetkazdi.



## "Menejment" ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanidan malakaviy imtihon o'tkazildi |5-iyн.|



Mustaqil izlanuvchilar uchun maslahat mashg'ulotlari va malakaviy imtihonlar o'tkazildi.

Imtihindona xolislik, ochiqlik va shaffoflik ta'minlandi. Komissiya a'zolari mustaqil izlanuvchilarga ixtisoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari yuzasidan savollar berdilar. Yosh tadqiqotchilar malakaviy imtihonni muvaffaqiyatli topshirdilar.

## Yakuniy imtihon haftaligida |6-iyн.|

Sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar uchun semestr davomida o'tilgan fanlardan yakuniy imtihonlar tashkil etildi.

Dastlab talabalar bilan uchrashuv o'tkazilib, ularning qator savollariga javoblar berildi va mustaqil ta'limning ahamiyati targ'ib qilindi.



O'zbekiston  
memorandum imzolandi |6-apr.|

Iqtisodiyot  
Assambleyasi

bilan



**Xalqaro Nordik universiteti va O'zbekiston Iqtisodiyot Assambleyasi** rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv o'tkazildi.



Uchrashuvda universitetda ishlanayotgan ilmiy tadqiqotlar, texnologik ishlanma va innovatsiyalarni mahalliy biznes vakillari orasida targ'ib qilish, amaliyotda qo'llash, hamkorlikda biznes tur va biznes forumlar tashkil qilish xususida so'z bordi.



Muzokara davomida o'zida 12 ta mahalliy ilg'or assotsiatsiya va milliy markazlarni birlashtirgan mazkur Assambleya bilan biznes vakillarining professional boshqaruv sohasida bilim va malakasini oshirish borasida amaliy hamkorlikka kelishildi va memorandum imzolandi.

## Tabriklaymiz! |11-14-iyn.|

"Россотрудничество"ning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi tomonidan rus tili o'qituvchilari o'rtaida pedagogik mahorat tanlovi o'tkazildi.

Xalqaro Nordik universiteti o'qituvchisi **Natalya Chernova** ushbu "Yil filologi - 2024" tanlovida 3-o'rinni egalladi va Nijniy Novgorodda malaka oshirish imkoniyatini qo'lga kiritdi.



XNU huzuridagi ilmiy kengash qarori asosida Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan:

1. Isayev Qobiljon Abdukodirovichga;
2. Qodirov Jasurbek Sharofiddinovichga

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasi (PhD) taqdim etildi.

Diplom sohiblariga kelgusidagi ilmiy-pedagogik faoliyatlarida muvaffaqiyat tilaymiz!

### DASTLABKI **qaldirg'ochlarimiz** diplom olishdi!



Xalqaro Nordik universitetining Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi **Nilufarxon Yuldashevani** psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lganligi bilan tabriklaymiz!

U Nizomiy nomidagi **Toshkent davlat pedagogika universiteti** huzuridagi ilmiy kengashda "Shaxs irodaviy reguliyatsiyasi jarayonida lokus nazoratning o'rni" mavzusidagi dissertatsiya ishini munosib yoqladi.

Nilufarxon Yuldashevaga kelgusidagi ilmiy-pedagogik faoliyatida muvaffaqiyat tilaymiz!

## "Harbiy prokuror sovrini" g'oliblari taqdirlandilar! |13-iyн.|



Harbiy-akademik litseylarning 10-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan matematika fanidan musobaqa g'oliblari taqdirlash tadbiri o'tkazildi.

Tadbir O'zbekiston Davlat madhiysi sadolari ostida boshlandi.



Tadbirda Xalqaro Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** harbiy-akademik litseylarning keng dunyoqarashli, intellektual salohiyatlari, harbiy, tabiyi va aniq fanlar bilimdonlari bo'lgan g'olib o'quvchilarni samimiy tabrikladи.



Tadbirda musobaqa g'oliblariiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinososari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining sovrini va Sertifikatlar topshirildi. Ular ta'lif olayotgan mакtablar rahbariyatlariiga ham minnatdorchilik bildirilib, munosib taqdirlandilar.



## Finlandiyada faxriy konsullar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda |16-iyн.|



Finlandiya Tashqi ishlar vazirligida mamlakatning Ukraina, Armaniston, Gruziya, O'zbekiston (**Alisher Jo'rayev**) va Qирг'изiston kabi davlatlardagi faxriy konsullari ishtirokida uchrashuvlar o'tkazildi.

Dastlab Finlandiya Tashqi ishlar vazirligining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo departamenti bosh direktori Marja Liivala, Janubiy Kavkaz bo'yicha elchisi, fin diplomati Kirsti Narinen bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Dastur doirasida konsullik xizmatlari departamenti mas'ullari bilan uchrashuv, yig'ilish va munozaralar o'tkazilmoqda. Faxriy konsullarning mamlakatlar haqidagi ma'lumotlari tinglandi.

14-iyunda boshlangan uchrashuvlar 18-iyunga qadar davom etdi.

## Finlandiyaga tashrif samarali o'tdi |16-iyн.|

Xalqaro Nordik universitetining Boshqaruvi kengashi raisi **Dr. Alisher Jurayev** Helsinki shahrida Finlyandiya Tashqi ishlar vaziri **Elina Valtonen** xonim bilan uchrashdi.

Uchrashuv davomida Dr. Jurayev, Valtonen xonimga Xaqqaro Nordik universitetining Finlyandiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy ta'lif xabi sifatida ta'lif va tadqiqot sohasida amalga oshirayotgan keng ko'lamlili ishlari va kelajak rejalarini haqida o'rtoqlashdi.



## Finlandiyada yozgi ta'til! |18-iyn.|

Bir guruh ustozlar va talabalarimiz bu yilgi yozgi ta'tilni yangi mamlakat - yangi xorijiy manzilda o'tkazish imkoniyatini qo'lga kiritdilar.

Delegatsiyamiz "**Work and travel**" dasturi bo'yicha Finlandiyaga yo'l olishdi. Ular Shimoliy Savoniya viloyatidagi maftunkor va zamonaviy shahar - Suonenjokida daromadli ish va qiziqarli sayohatni amalga oshirdilar.



## Finlandita elchisi bilan uchrashuv |18-iyn.|



Xalqaro Nordik universiteti Boshqaruv kengashi raisi Dr. Alisher Jurayev Finlyandiya Tashqi ishlar vazirining maxsus ta'lim elchisi Sannamaaria Vanamo xonim bilan uchrashdi.

Uchrashuvda Xalqaro Nordik universitetining boshqa fin universitetlari, professional kollejlari va kompaniyalari bilan hamkorligini kengaytirish rejali bo'yicha suhbatlashildi.

## Finlandiya parlamentida uchrashuv bo'lib o'tdi |19-iyn.|

Finlandiya parlamentida deputatlar, parlament a'zolari va faxriy konsullar o'rtaida samimiy muloqot bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda ish faoliyatları samaralari va kelajak rejali xususida o'zaro ma'lumot almashildi.

Muloqtlarda Finlandyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli, Xalqaro Nordik universiteti boshqaruv kengashi raisi Dr. Alisher Jurayev ham ishtirok etdi va istiqbolli hamkorlik takliflarini ilgari surdi.



## **Universitet kengashining 9-son yig'ilishi bo'lib o'tdi |24-iyн.|**

Kengash yig'ilishida dastlab oly ta'lif tizimidagi yangiliklar, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan oly ta'lif muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektorda belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga ahamiyat qaratildi.



Kun tartibidagi masala - 2023/2024-o'quv yili yakunlari: solishtirma tahlillar, dars mashg'ulotlarining sifati va kafedra mudirlari faoliyi bo'yicha mas'ullar hisobotlari tinglandi.

Shuningdek, yangi 2024/2025-o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish: amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar, o'quv yuklamalari taqsimoti va bitiruvchi talabalar bilan ishlashning zamonaviy mexanizmlari to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Kengash yig'ilishida joriy o'quv yili davomida ma'nnaviy-ma'rifiy va tarbiyaviy sohada amalga oshirilgan ishlar va yangi o'quv yili uchun ustuvor vazifalar, o'quv jarayonini boshqarishda HEMIS platformasidan to'liq foydalanish, dars jarayonlarini yuritish tarkibi va sifatini yanada takomillashtirish masalalari bo'yicha mas'ullar hisobotlari tinglandi. Kengash a'zolarining takliflari o'rganildi.



Shuningdek, talaba-yoshlarning yozgi ta'til davridagi bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Kengash yig'ilishida o'ndan ortiq dolzarb masalalar muhokama etildi va ko'rilgan masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

## **Ilmiy faoliyat va amaliy tajribalar muvofiqlashtirilmoxda |26-iyн.|**

Nordik professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari BMT Taraqqiyot dasturi granti asosida O'zbekiston uchun kasbiy bandlikni o'lchash barometrini tuzish borasida ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Lohiya hamkor - O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinosari, yuridik fanlari nomzodi, dotsent Ra'no Turdiboyeva ishtirokida davra suhbati o'tkazildi.

Uchrashuvda loyha doirasida olib borilayotgan ilmiy-amaliy faoliyat natijalari sarhisob qilindi. Mehnat bozoriga oid muammolar va ularning yechimlari, shaxsni kasbiy rivojlantirishga qaratilgan ta'lif borasida ilm va tajribalar almashildi.



## Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnalining 2-soni nashr etildi



Mazkur sonda iqtisodiyot, pedagogika, psixologiya, falsafa, tarix va filologiyaga oid tahliliy maqolalar o'rın olgan bo'lib, mazkur sohalar samaradorligini oshiruvchi yangi metodika va qarashlar jamlangan.

Jurnalimiz orqali ilmiy topilma va yangiliklar keng jamoatchilikka yetkazildi!

## Uzoq istiqbolga mo'ljallangan loyihamalar

"Xalq so'zi" gazetasining bugungi sonida "**Munosabat**" ruknida Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor Sherzod Mustafakulovning maqolasi nashr etildi.

Ma'lumki, siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkaman!" sarlavhasi maqolasidagi fikrlar, ya'ni Yurtboshimizning Jizzaxda viloyat faollari bilan uchrashuvdagi nutqida mavzudan biroz chekinib, yurakdan aytilan so'zları barchani yanada teran fikrashga undadi.

Rektorimizning maqolasida ushbu maqoladagi fikrlarga munosabat, shuningdek yurtimizda sohalar talablariga mos kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kengaytirish hamda takomillashtirish ishlariiga e'tibor va uzoq istiqbolga mo'ljallanayotgan islohotlar samaralari haqidagi mulohazalar bayon etilgan.



## XNU Yevropa Ittifoqi Sertifikati bilan taqdirlandi



Yevropa kuni doirasida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikning 30 yilligi nishonlandi.

Xalqaro Nordik universiteti "**Yevropa Ittifoqi - O'zbekiston hamkorligining 30 yilligi**"ga bag'ishlangan festivalda ishtirop etdi va ushbu davlatlararo uyushma tomonidan Sertifikat bilan taqdirlandi.





**Xalqaro Nordik universiteti missiyasi** – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashuv sharoitida ta'lif eksportini oshirishdan iborat!



@nordic\_edu

